

TIL O'RGANISHDA MOTIVATSIYA VA INTIZOMNING ROLI

Nasriddinova Gulshoda Davronovna

Samarqanda Davlat Chet tili Instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada motivatsiya va intizomning til o'rganish jarayonida qay darajada muhimligi ko'rsatib berilgan. Tadqiqodda motivatsiya va intizomning farqli va o'xshash jihatlari hamda ularning til o'rganuvchi muvaffaqiyatiga ta'siri ko'rib chiqilgan. shuningdek maqola so'ngida til o'rgatuvchilar va ota - onalar uchun tavsiyalar ham berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: motivatsiya, intizom, o'quvchi, talaba, chet tili, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, muvaffaqiyat

So'nggi yillarda ikkinchi tilni o'zlashtirish yondashuvlari sezilarli darajada o'zgardi. O'tgan yillar- da ta'lim nazariyalarida xulq-atvor psixologiyasining tamoyillari ustunlik qilgan, bu o'rganishni kundalik kontekstdagi voqealarga qarab o'quvchining xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar sifatida tasvirlash kerakligini tan oladi. Bixevioristlarning fikriga ko'ra, og'zaki yoki og'zaki bo'lmagan barcha o'rganish bir xil asosiy jarayon orqali sodir bo'ladi. Talabalar o'z muhitidagi ma'ruzachilar- dan lingvistik ma'lumot oladi va ular so'zlar, ob'ektlar yoki hodisalar o'rtasida assotsiatsiyalar hosil qiladi. Taxminlarga ko'ra, ikkinchi tilni o'rganayotgan

inson harakati birinchi tilni o'rganish jarayonida shakllangan odatlardan boshlanadi va bu odatlar ikkinchi til uchun zarur bo'lgan odatlarga xalaqit beradi. Xomskiyning til nazariyasi tug'ma bilim barcha bolalarga rivojlanishining muhim davrida atrof-muhit tilini o'zlashtirishga imkon beradi degan gipotezaga asoslanadi. Yigirmanchi asrning o'rtalari xulq-atvor psixologiyasi bilan bog'liq bo'lgan motivatsiyaning shartli nazariyalari bilan tavsiflanadi. Bixevioristlar insonning motivatsiyani qo'zg'atadigan asosiy psixologik ehtiyojlari bor deb o'ylashgan. Kognitiv nazariyalar esa xulq-atvorning psixologik qarashlari sifatida ishlab chiqilgan. Kognitiv nazariyalarga asoslanib, odamlar nafaqat tashqi hodisalarga yoki jismoniy sharoitlarga javob berishadi, balki ular ushbu hodisalarni idrok etishlariga ham javob berishadi. Bu nuqtai nazar odamlarning ongli munosabati, fikrlari, e'tiqodlari va voqealar talqini ularning xatti-harakatlariga qanday ta'sir qilishiga e'tibor qaratadi.

Agar biz motivatsiyaga fan tarafdin e'tibor qaratadigan bo'lsak u ikki guruhga ajaraladi. Bular:

1. Ichki motivatsiya - insonning o'z qiziqishi va ehtiyoji tufayli biror ishni qilishga bo'lgan istagi. Masalan insonning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi yoki boshqa davlatlarning madaniyatini o'rganishga bo'lgan xohishi.

2. Tashqi motivatsiya - tashqi sabablar bilan bog'liq bo'lgan rag'batlar. Masalan, til o'rganish orqali yaxshi ish topish va moddiy jihatdan yaxshilanish yoki chet elda o'qish. Motivatsiya insonni boshlang'ich harakatga undaydi, ammo u doimiy davom eta olmaydi.

Shuningdek, motivatsiya bilan bir qatorda intizom ham til o'rganishda asosiy ro'l o'ynaydi va harakatni doimiy davom etishini ta'minlaydi.

Intizom - o'zini boshqarish qobiliyati ya'ni maqsadga erishish uchun belgilangan rejaga qat'iy rioya qilish orqali maqsadlarga erisha olishni anglatadi. shu bilan birga intizom motivatsiya bo'lmasa ham davom etishi mumkin.

Intizomning 3 ta asosiy xususiyatlari mavjud:

1. Muntazamlik - reja bo'yicha biron ishni har kuni bajarish odatini shakllantirish, misol uchun kuniga kamida 20 ta lug'atni yod olishni rejalashtirib har kuni belgilangan vaqtda davomiy bajarib borish tilni samarali va tez o'rganishga yo'l ochadi;

2. Qat'iyat - turli qiyinchiliklarga qaramay ishni davom ettirish qobiliyati, ya'ni ko'pchilik til o'rganish jarayonida juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi va faqat qat'iyatli insonlarga orzu maqsadlariga erishish uchun o'zlarida kuch topa olishadi;

3. Mas'uliyatlilik - Belgilangan vazifani o'z vaqtida bajarish, ya'ni kunlik rejalashtirilgan vazifalarni qat'iyat bilan muntazam bajarib borish mas'uliyatlilik deb ataladi. Ko'rib turganingizdek Muntazamlik, Qat'iyat va Mas'uliyat bu 3 ta xususiyat bir biriga juda bog'liq va ulkan yutuqlarga erishishni xohlagan insonda bu uchchala xususiyat ham bo'lishi lozim;

Shuningdek, bu ikkala omil o'rtasida o'ziga xos bog'liqlik va farqlari ham mavjud. Bog'liq jihatlariga to'xtalsak, Motivatsiya boshlang'ich kuch beradi, intizom esa maqsadga yetguncha davom etishga yordam beradi, misol uchun inson biron ishni qilishga qo'ygan maqsadi va orzularidan motivatsiya oladi va intizom orqali sekin asta o'sha orzu, maqsadlarini ro'yobga chiqarishi mumkin bo'ladi. shu jihatdan motivatsiya va intizom bir biriga bog'liq hisoblanadi.

Shu bilan birga farqli jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, Motivatsiya asosan hissiyot va istaklar asosida paydo bo'ladi, intizom esa rejalar va odatlar asosida shakllanadi. Motivatsiya vaqtinchalik bo'lishi mumkin, intizom esa doimiylikni ta'minlaydi.

Shaxs chet tilini o'rganishga bo'lgan istagi paydo bo'lsagina va bu inson chet tilini o'rganishga inlitilishidan dalolat beradi" deb aytadi. Oksford tahriridagi lug'atlarda motivatsiyaga nisbatan quyidagicha ta'rif berilgan. "Bir kishining harakatlari yoki xatti-harakatlarida namoyon bo'lishi sifatida ta'rif berilgan". Motivatsiya mavhum tushuncha hisoblanib, motivatsiyani aniqlash qiyinchilik tug'diradi. Motivatsiya orqali

chet tilini o'rganuvchi talabalar ajralib turadi, chunki ularda chet tilini o'rganishda ishtiyoqi baland bo'lganligi va ular chet tilini o'zlashtirishda yaxshiroq natijaga erishishi bilan ko'rinib turadi. Chet tilini o'rganuvchilar uchun motivatsiya muhim rol o'ynaydi. Agar til o'rgatuvchi pedagoglar motivatsiyaning til o'rganish bilan bog'liqligini tushunishmasa, ular darsni samarali tashkil qila olmaydilar. Motivatsiyaning mohiyati - bu insonning kuchli xohishi orqali namoyon bo'ladi. Bunda insonning ichki maqsadlari va istaklari orqali namoyon bo'ladi. Chet tilini muvaffaqiyatli o'rganuvchilar tilni o'zlashtirishda qaysi jihatida o'zlarini kuchli hamda zaif tomonlarini bilgan holda kuchli taraflari orqali oqsoqlanadiga sohalarini topib tilni samarali o'zlashtira oladilar. Motivatsiya chet tilini o'rgatish uchun ham eng faol metodlardan biri bo'lib, o'qituvchilar auditoriyada turli xil motivatsion treninglardan foydalanib tilni tushuntirishsa, talabalarning tilni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi. Richardsning fikricha, motivatsiya insonning biror ishni bacharish istagini belgilovchi omil deb hisoblanadi. Bundan bilishimiz mumkinki, inson o'zi xoxlab bir ishni qilsagina, u o'z maqsadlariga erishadi. Chet tilini o'rganishda munosabat va motivatsiyaning o'zni haqida Gardner va Lambert tomonidan ham o'rganilganda, ular quyidagicha izoh berishadi, "Ular motivatsiyani o'quvchining umumiy maqsadi va yo'nalishi sifatida, hamda munosabatni o'rganuvchining maqsadga intilishda ko'rsatgan qat'iyligi sifatida belgiladilar".

Motivatsiya o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni yangi bilimlarni o'zlashtirishga undaydi. Yuqori motivatsiyaga ega o'quvchilar o'qishda yuqori natijalarga erishishadi va o'z maqsadlariga erishish uchun qattiq mehnat qilishadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, motivatsiya o'quvchilarning o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Yuqori motivatsiyaga ega o'quvchilar o'qishda yuqori natijalarga erishishadi, darslarni qoldirmaydilar va o'z bilimlarini doimiy ravishda oshirib boradilar. Aksincha, past motivatsiyaga ega o'quvchilar o'qishga qiziqmaydilar, darslarni qoldirishadi va o'zlashtirish ko'rsatkichlari past bo'ladi. Motivatsiyaning o'quvchilar muvaffaqiyatiga ta'sirini bir qancha omillar belgilaydi. Birinchidan, o'quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari motivatsiyaga ta'sir qiladi. O'qituvchilar har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishlari va ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashlari kerak. Ikkinchidan, o'qituvchilarning o'qitish uslubi va munosabati o'quvchilarning motivatsiyasiga ta'sir qiladi. O'qituvchilar darslarni qiziqarli va interaktiv tarzda o'tishlari, o'quvchilarni rag'batlantirishlari va ularning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishlari kerak. Uchinchidan, ota-onalarning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashi o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar o'z farzandlarining ta'lim

olishini qo'llabquvvatlashlari, ularning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishlari va o'qishning ahamiyatini tushuntirishlari kerak.

Xulosa qilib aytganda motivatsiya va intizom bir biriga uzviy bog'liq. Ularni bir biridan ajratgan holda o'rganish mushkul sanaladi. Bundan tashqari har bir inson qaysi tilni o'rganishdan qat'iy nazar albatta ularga motivatsiya va intizomning o'rni bo'lakcha. Tadqiqotlardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki motivatsiya har bir o'quvchi ning nafaqat til o'rganishida balki o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asadova, C., Ulug'bekova, S., & Shamsiyeva, K. (2024, April). INGILIZ TILIDA LUG'AT YODLASHNING SAMARALI USULLARI. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 152-155).
2. Salimovna, A. C. (2023). TEACHING CHILDREN HOW TO SET ADEQUATE GOALS AND STRATEGIES. *FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"*, 14(1).
3. Makhmudova, J., & Asadova, C. (2024, April). THE GOALS AND OBJECTIVES OF USING GAME ACTIVITIES IN EDUCATION. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 194-197).
4. Асадова, Ч. (2019). АБСТРАКТНЫЕ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫЕ В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (1-3), 82-84.
5. Асадова, Ч. (2022). Хорижий tillarni o'rganishda yosh davriga xos xususiyatlar. *Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков*, 1(01), 225-226.
6. I.Yo'ldoshev, S. Muhamedova, Z. Xolmonova, R. Majidova, Sh. Sultonova "Mutaxassislik kirish" Toshkent: fan 2018